
"Monomarkaz"da navbatdagi sayyor qabul o'tkazildi

Farg'ona shahar hokimligi tomonidan tashkillangan sayyor qabulda shahar hokimi o'rinbosarlari, sektor kotiblari, majburiy ijro byurosi, adliya bo'limi vakillari hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Xalq qabulxonasi shahar bo'limi mudiri va xodimlari ishtirok etishdi.

Qabul davomida 70 nafardan ortiq fuqarolarning murojaatlari mas'ul rahbarlar ishtirokida o'rganildi. Yigirmadan ortiq murojaatlar ijobiy hal qilindi.

Kelib tushgan murojaatlarni o'rganish va natijasi bo'yicha mualliflarga ma'lum qilish uchun masalaga daxldor xodimlar, korxonalar, tashkilot va bo'limlarga tegishli topshiriqlar berildi.

2023-09-14 06:17:48